



## DAVLAT BOSHQARUVINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA OID BAZI MULOHAZALARI

**Sobirov Shokir Ergashovich**

*TTA Urganch filiali Akademik litseyi tarix fani katta o'qituvchisi*

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** *Mazkur maqolada Davlat boshqaruvining nazariy-metodologik asoslariga oid fikrlar va izlanishlar orqali bizga malim bo'lgan g'oyalar va qarashlarni yanada kengroq va chuqurroq o'rganishga va yoritishga harakat qilindi.*

**Аннотация:** *В данной статье предпринята попытка изучить и уточнить известные нам идеи и взгляды посредством размышлений и исследований, связанных с теоретико-методологическими основами государственного управления.*

**Annotation:** *This article attempts to explore and clarify the ideas and views known to us through reflection and research related to the theoretical and methodological foundations of public administration.*

**Kalit so'zlar:** *Davlat tushunchasi , boshqaruv funksiyalari , ijtimoiy funksiyalar , hududiy funksiyalar, biologik boshqaruv , texnologik boshqaruv, ijtimoiy boshqaruv, strategik boshqaruv , tezkor boshqaruv*

**Ключевые слова:** *Государственная концепция, функции управления, социальные функции, территориальные функции, биологический менеджмент, технологический менеджмент, социальный менеджмент, стратегический менеджмент, оперативный менеджмент*

**Key words:** *Concept of the state, management functions, social functions, territorial functions, biological management, technological management, social management, strategic management, operational management.*

Ilk davlatchilik tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib boruvchi aksariya olimlarning e'tirof etishicha, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik asoslarini bronza ( mil.av. III-II m) davridagi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashga hunarmandchilik xo'jaliklari tashkil etgan edi. Shuningdek, ilk davlatchilikning tarixiy ildizlari faqat ichki sabablarigina bog'liq bo'lmay, balki qadimgi Sharqdagi yuksak darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga bog'liq bo'lgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan yuqori sifatli moddiy madaniy buyumlari o'zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuzlab ming yilliklarni o'z ichiga qamragan insoniyat tarixida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi –nisbatan ancha kech yuz bergan jarayon hisoblanadi.

Davlatchilik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining so'nggi besh ming yili bilan bog'liq.



Ilk davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida turli hususiyatlar va tarixiy qonuniyatlariga ega bo'lib, ilk davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari-dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik qayerda oldinroq rivojlangan bo'lsa, o'sha yerda paydo bo'lgan.

Teologik nazariya -davlatni xudo yaratgan degan g'oyani ilgari suradi, teokratik davlat tarafdorlari fikrini aks ettiradi.

Patriarxal nazariya -davlat kattalashib ketgan oila dan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Nazariyadastlab Yunonistonda paydo bo'lgan va Aristotel asarlarida asoslab berilgan. XVII asrga kelib ingliz olimi Filmerning „Patriarx“ asarida rivojlantirilgan.

Shartnoma nazariyasi -XVII-XVIII asrlarda tarqalgan bo'lib, unga ko'ra, davlat-o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini davlatga beradilar.

A.S. Sagdullayevning malumotlariga ko'ra, boshqaruvning paydo bo'lish asoslari quyidagilardan iborat bo'lgan: ishlab chiqarish va ijtimoiy mexnat naqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalani zarurati, jamoadagi mavjud urf-odatlarini bajarish, jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo'linishi.

Olimning ta'kidlashicha eng qadimgi davrlardan boshlabto bugumngi kungacha quyidagi boshqaruv vazifalari ustuvor bo'lib kelmoqda: tashkil qilish, tartibga solish, nazorat, jamiyatning ichki va tashqi murakkabliklarini boshqarib turish.

Qadimgi boshqaruv tizimining birinchi bosqichi quyidagi funksiyalar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi: iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, hududiy.

Tadqiqotlarga ko'ra jamiyatdagi inson faoliyati ta'sirida ro'y beradigan jarayonlar hamda voqea-hodisalar bevosita boshqaruv faoliyati bilan bog'liq holda kechadi. Boshqaruv, bu-muayyan jamoa yoki tashkilot a'zolarining faoliyati yo'nalishini ta'minlaydigan, butun tashkilot va unung bo'limlarini belgilangn maqsad doirasida ushlab turadigan, faoliyat turlariga ko'ra, jamiyatning barcha jabhalarida o'ziga hos tizilmaga ega bo'lgan, muayyan rahbar kandrlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifadir.

Tadqiqotchilar insonning hayotning turli jabhalariga ta'sir ko'rsatish nuqta'iy nazaridan quyidagi boshqaruv turlarini ajratib ko'rsatadilar:

1. Hayvonot va o'simliklar dunyosiga zarur shaklda ta'sir ko'rsatish yo'lini tanlash bilan bog'liq bo'lgan biologik boshqaruv.

2. Texnologik jarayonlar mexanizmlar va shunga o'xshash xolatlarni boshqarish bilan bog'liq texnologik boshqaruv.

3. Insonning insonga ta'sir qilish vositalarini shakllantiruvchi jamiyat boshqaruvini nazarda tutadigan ijtimoiy boshqaruv. Ijtimoiy boshqaruv o'z hususiyatlari bilan qolgan ikkita boshqaruv turlaridan ajralib turadi.

Muvaqqat harakat me'yoring miqyosiga bog'liq holda boshqaruv strategik, taktik va tezkor ko'rinishlarga bo'linadi.





Aynan mana shu sabablarga ko'ra, hozir biz yashayotgan jamiyatda rahbar kadrlar faoliyatini nazorat qilishda amaliy ish olib boruvchi tizimlar- komissiya, reviziya, attestatsiya kabi tizimlar mavjud bo'lib, bu tizimlar ham davlat ham nodavlat tashkilotlarga baravar hizmat ko'rsatadi.

Shunday qilib O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi, bu- davlat va nodavlat idoralarining qonunlarini hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish vazifalarini bajarish yo'lida o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan kundalik qonuniy ijrochilik va ma'muriy faoliyatidan iborat.

Bugungi zamonaviy zamonaviy davlatning asosiy vazifalari jamiyatning normal hayoti va taraqqiyotini tashkil etish, shu jamiyat fuqolari va xalqining huquq, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalash, mamlakatning ichki va tashqi ziddiyatlari hamda qarama-qarshiliklarini hal etishga qaratilgan.

Davlatning boshqaruv vazifasi davlatning deyarli barcha vazifalarini qamrab olganligi sababli, davlatning vazifalari, bu-boshqaruv vazifasining yig'indisi sifatida izohlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, davlat jamiyatning hayotiy faoliyatini qo'llab quvvatlash bo'yicha turli vazifalarni bajaradi. Ularning barchasi ma'lum darajada boshqaruv bilan bog'libo'lib, boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat rivojlanib borgani sari bu boshqaruv, u bilan birga, davlat apparati ham murakkablashib, takomillashib boraveradi.

Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash bu sohadagi qonunlar va qonuniy hujjatlarning aniq va so'zsiz bajarilishi, ularga rioya qilinishi bo'yicha shaxs va tashkilotlarning birgalikdagi ish faoliyatidan iboratdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Mas'ul muxarrirlar: Alimova D.A, Rtveladze E.V.- T., "Sharq", 2018-yil.
2. Eshov B O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.- T., "O'zbekiston Milliy Universitet", 2019-yil,
3. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi.- T., "G'afur G'ulom", 2016-yil.
4. Usmon Turon Turkiy xalqlar mafkurasi.- T., "Cho'lpon", 2018-yil.
5. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.- T., "Sharq", 2020-yil.
6. Abdurahimova N.A, Isakova M.S, Suleymanova Z.M Davlat muassasalari tarixi.- T., "Sharq", 2017-yil.
7. Abulg'ozzi. SHajarayi Turk.- T., "Cho'lpon", 2019-yil.
8. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar.-T., "Fan", 2017-yil.
9. Nasimxon Raxmon. Turk xoqonligi.-T., 2018-yil